

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSЛИGI

Karimova Shahnoza Hamro qizi,

Aitboyeva Shirin Umid qizi,

Bozorboyeva Mayluda Qudrat qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti III bosqich talabasi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti, o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqi, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik, interfaol, innovatsiya, modul, tanqid, metod, ona tili, ta'lif tizimi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiq etishni o'rgatadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursining (xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish va hok.) dasturini belgilash va asoslash;
- b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rakashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;
- v) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, oddiy o'yplashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish; Ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini

aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lif texnologiyasining o'ziga xos jihat o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.
2. Hamkorlikda oqitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtaida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishini vujudga keltirish.
3. Muammoli ta'lif texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'rilingini tasdiqlashdir.
4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.
5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.
6. Sinov darslari. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, oqituvchi oquvchini oquv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

Charxpalak

1. 4-5 kishidan iborat kichik bir guruh tashkillanadi. Ularning har biriga toza oq qog'oz beriladi. Barchalariga bir xil savol beriladi. Agar hohishga qarab varoqlarni o'ziga turli savollar yozilishi mumkin. Barcha ishtirokchilar o'zaro maslahatlashmaydilar o'zlariga kelgan fikr-mulohazani yozishlari kerak bo'ladi.
2. Vaqtini belgilab qo'yamiz va qo'llaridagi qog'ozni soat millarining harakatiga muvofiq narigi guruhdagi sherigiga uzatishadi. Albatta buna tinchlikni saqlashni o'qituvchi nazorat qilib turadi. Ishtirokchilar qo'llaridagi ma'lumotni takrorlamasdan yangi fikr bildirishi kerak bo'ladi. Qog'oz birinchi yozgan ishtirokchiga yetib kelsa o'yin yakunlanadi.
3. Kichik guruhlar bergan javoblarni o'zro muhokama qilinadi. Muhumlari va dolzarblari yakuniy ro'yhatga olinadi.
4. Barchani ma'lumotlari yig'ilgandan so'ng boshqalarda e'tiroz bo'lmasa eng so'ngi natija sifatida olinadi.

Bu metodimizning afzalligi: taklif etilgan masalalarni izchil muhokama qilishni tashkil etish, so'ng jamoa bo'lib qarorni qabul qilish, bilimlarni dolzarblashtirish va mavjuda tajribani qniqlash.

Metodni qo'llashdan oldin barcha o'quvchilarni bu mavzuni yaxshi o'zlashtirganliklariga amin bo'lish zarur. Chunki, yaxshi bilmagan yoki matin bilan tanishmagan o'quvchi metodni muvofaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Turli xil matinlar bilan tanishtirilgandan so'ng ular ustida ishslash va o'z xulosalarni chiqarish maqsadida bu metoddan foydalansak bo'ladi. Boshqa aniq fanlar yuzasidan ham qo'llasak o'z samarasini berishi tayin.

Endi sizlarga aytmoqchi bo'lgan metodim bolani xotirasini qanchalik ekanligini aniqlashga, diqqatni jamlashga va fikrlashga undovchi metod sanaladi. Men o'z o'quvchilarimda buni qo'llab ko'rdim. O'quvchilar juda qiziqish bilan shartlarni bajarishdi. Men esa ko'zlagan maqsadimga erishdim. Bu metodning nomi "SAYOHATCHI" deb nomlanadi. Uning qoidalari va shartlari bilan birmabir tanishtirib o'tadigan bo'lsam.

SAYOHATCHI

1. Ma'lum bir matin o'tilgandan so'ng ulardagi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida saqlab qolishi uchun ulardagи yodlashga qiyin bo'lgan ma'lumotlarni varoqchalarga yozib chiqamiz va o'quvchilarga tarqatib beramiz. Barcha o'quvchilarga tarqatish shart emas. Varoqcha yetnagan o'quvchi sherigi qaysi ma'lumotni qaysi rasmga joylaganiga diqqatini qaratib turishi so'raladi.

2. Doskada ma'lumotlarga mos tarzda rangli rasmlar ilingan bo'ladi. O'quvchilar chiqib qo'llaridagi ma'lumotlarni o'sha rasmlardan biriga joylashlari kerak bo'ladi. Orada o'qituvchi o'quvchilarni tinchlatish uchun qaysi o'quvchi ma'lumotini qaysi rasmga joylaganini so'rabi turishi kerak bo'ladi.

3. Hamma o'quvchi ma'lumotlarini rasmlarga joylab bo'lgach o'qituvchi o'quvchilardan qaysi ma'lumot qaysi rasmida ekanligini istagan o'quvchidan so'rashi kerak bo'ladi. Agar barcha to'g'ri javob beradigan bo'lsa natijaga erishgan sanaladi.

INSERT

Bu metod o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratishi bilan boshlanadi. So'ng o'qituvchi o'quvchilarga mavzuni nomini aytadi va oq qog'ozga shu mavzuga mos 2 ta ma'lumotlar yozishlari so'raladi. Vaqt belgilanadi. Muddat tugagandan keyin o'quvchilarning har biriga quyidagi smile lari bor qog'ozlar va matinning to'liq ko'rinishi tarqatiladi. Agar yozgan ma'lumotlari to'g'ri bo'lsa yashil simeliga, sal bo'lsa ham yaqin bo'lsa sariq simeliga, umuman yaqinlashmagan bo'sa qizil smilega belgi qo'yishadi. O'qituvchi doskada guruhlardagi to'g'ri va yaqin bo'lgan ma'lumotlar sonini belgilab boradi. Kimda ko'p to'g'ri ma'lumot bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'lgan sanaladi.

Bu metodimiz orqali biz bolalarni oldindan bashorat qilish va matin nomidan foydalanib voqealar rivojini tahmin qilish kabi ko'nikmalarini shakillantirishimiz mumkin bo'ladi.

2-sinf o'quvchilarida matinni tushunish va anglash ko'nikmalarini shakillantirish va rivojantirishdagi dastlabgi qadamlarda yordam beradigan metodlarimizdan biri bo'lgan "TAKRORLAMA" metodini ko'rib chiqamiz. O'quvchilarni doimgidek kichik guruhlarga ajratib olamiz. Bundan maqsad o'quvchilarda guruh bilan ishlash va guruhda o'quvchi o'z fikrini erkin ayta olish kabi ko'nikmalarni oshirish ko'zda tutilgan bo'ladi. Har bir guruhlarga rasmlar tarqatiladi va shu rasmlarga mos qilib sarlovha tanlanadi, gaplar tuziladi. Bir martta tuzilgan gap boshqa takrorlanmasligi kerak. Bular asosiy qoidalar hisoblanadi. Bu metod matin tuzishning og'zaki tuzish turiga kirib, bunda o'quvchining so'z boyligining yaxshiligi, atrof-muhitga qanchalik e'tiborli ekanliklari ham sinaladi.

Shu kabi metodlarni ko'plab qilib, ularni tarbiyasiga yaxshilab qarashimiz, mas'uliyatlbo'lishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, bunday tartibdagi metodlar dars samaradorligini nafaqat oshiradi balki, o'quvchilarni harakatga undaydi va ularni o'rganishga, izlanishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Shuning uchun har bir darslarda shu turdagি turli xil metodlardan foydalanib dars o'tishimiz kerak. Ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad - o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation.
2. Til va adabiyot ta'limi (O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali). 2008 yil 1-son. 3-6 b
3. Xalq Ta'limi jurnali 2015 yil 5- son. 36 b
4. Til va adabiyot ta'limi 2019 yil 1- son 16 b